




Farg'ona viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2018 yil yanvar-iyun (dastlabki ma'lumot)



Ish haqi. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:

1. Sanoatda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 795,8 ming so'mga to'g'ri keldi, va 2017 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 15,7 % ga oshdi.



•Qurilishda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 708,3 ming so'mga to'g'ri keldi va 2017 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 16,4 % ga oshdi.



•Savdo sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 869,1 ming so'mga to'g'ri keldi va 2017-yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 19,9 % ga oshdi.

•Transport sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 651,5 ming so'mga to'g'ri keldi va 2017 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 16,2 % ga oshdi.

•Yashash va ovqatlanishda o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori 925,1 ming so'mni tashkil qilib, 2017 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 15,6 % ga oshdi.

•Axborot va kommunikatsiya sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1 770,4 ming so'mga to'g'ri keldi va 2017 yilning shu davri bilan taqqoslaganda 17,6 % ga oshdi.



•Moliya va sug'urta faoliyati sohasida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 362,0 ming so'mni tashkil qildi va 2017 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 12,2 % ga oshdi.

•Ta'lim sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1 156,5 ming so'mni tashkil qildi va 2017 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 13,6 % ga oshdi.



•Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 990,6 ming so'mga to'g'ri keldi va 2017 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 15,8 % ga oshdi.


•San'at, o'yin-kulgi va dam olish sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1 143,7 ming so'mni tashkil qilib, 2017 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 12,6 % ga oshdi.

Umuman, barcha turdagi xo'jalik faoliyati uchun joriy 2018 yilning yanvar-iyun oylarida Farg'ona viloyatidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 319,7 ming so'mni tashkil qilib (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantiruvchi, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun to'lovlar hamda jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlarni ham o'z ichiga oladi), 2017 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 10,9 % ga oshdi.



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2018 yil yanvar-iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, ming so'm)




2017 yilning mos davri bilan solishtirganda, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori o'sish sur'ati savdo sohasida 19,9 %, axborot va kommunikatsiya sohasida 17,6 %, qurilishda 16,4 %, transport va omborxonalar xizmatlarida 16,2 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari sohasida 15,6 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, hududlar kesimida qaraydigan bolsak, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Farg'ona shahrida 1 647,1 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 124,8%), Quvasoy shahrida 1 476,5 ming so'mni (111,9%), Qo'qon shahrida 1 417,5 ming so'mni (107,4%) hamda Toshloq tumanida 1 369 ming so'mni (103,7%) tashkil etmoqda.

Shahar va tumanlar kesimidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2018 yil yanvar-iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, ming so'm)




O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'ati
(2018 yil yanvar-iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, %)



	2017 yil	2018 yil	Osish sur'ati %
Farg'ona viloyati	1208,5	1319,7	109,2
Farg'ona	1384,2	1647,1	119,0
Qo'qon	1177,9	1417,5	120,3
Quvasoy	1298,8	1476,5	113,7
Marg'ilon	1038,6	1236,6	119,1
Oltiariq	985	1127,6	114,5
Qo'shtepa	973	1136,7	116,8
Bog'dod	1026,4	1129,4	110,0
Buvayda	908,7	1052,3	115,8
Beshariq	856,9	1037,4	121,1
Quva	969,1	1101,7	113,7
Uchko'prik	940,5	1079,8	114,8
Rishton	1046,6	1093,8	104,5
So'x	1034,4	1265,4	122,3
Toshloq	1057	1369	129,5
O'zbekiston	899,3	1083	120,4
Farg'ona	934,6	1071,4	114,6
Dang'ara	948,3	1100,2	116,0
Furqat	969,8	1151,9	118,8
Yozyovon	1020,9	1174,4	115,0

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha respublika va viloyat miqyosida hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdorlari

(2018 yil yanvar-iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, ming so'm)



Faoliyat turi	Respublika	Viloyat bo'yicha
Sanoat	2443,6	1795,8
Qurilish	1953,1	1708,3
Savdo	1635,0	1869,1
Tashish va saqlash	2148,3	1651,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1144,9	925,1
Axborot va kommunikatsiya	3030,1	1770,4
Moliya va sug'urta faoliyati	3054,9	2362
Ta'lim	1250,4	1156,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1058,5	990,6
San'at, o'yin-kulgi va hordiq	1505,3	1143,7
Boshqalar	1404,7	1209,4

Demography va mehnat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul S. Meliqo'ziev

Telefon: (71) 230-87-33